

**MUSIQA SAN'ATI YOSH AVLODNI MANAVIY
SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI, QORAQALPOQ MUSIQA
MADANIYATI.**

Qudratov Mexroj Pardaql o'g'li

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

Usmonova Mushtariy Shavkat qizi

Xalqaro innovatsion universiteti talabasi

Annotatsiya. Musiqa sanatining yosh avlodni manaviy shakllantirishda o'rni beqiyosdir. Mumtozva klassik kuy va qo'shiqlar tinglagan har bir kishi go'zallik dunyosiga kirib qoladi, manaviy yetuk va barkamol, insonlarga sof nazar bilan qaraydi. Demakki, atrofdagi voqea-hodisalarni ezgulik sari nigoh tashlab, mamlakatning ravnaqiga katta ulushini qo'shadi.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, kelajak avlod, meros, janr, ijrochilik sanati.

Madaniyat va san'at xar bir millatni dunyoga tanituvchi, qadryatlarini anglatib turuvchi muhim omil ekanligini muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev doimo etirof etib kelgan. Bu borada hukumatimiz tomonidan yosh avlodni har tamonlama ilg'or va yetuk qilib tarbiyalash borasida ko'plab samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, kelajak avlodga musiqaning sir-asrorlarini o'rgatishi borasida ustozlar ko'magi ostida bilimlarini oshirishi, o'zining ijrochilik mahoratini namayon etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda [1. 2017-yil 31- maydagi PQ-3022-son].

Yosh avlodni manaviy shakllantirishda musiqa sanatining o'rni beqiyosdir. Klassik kuy va qo'shiqlar tinglagan har bir kishi go'zallik dunyosiga kirib qoladi, manaviy yetuk va barkamol, insonlarga sof nazar bilan qaraydi. Demakki, atrofdagi voqea-hodisalarni ezgulik sari nigoh tashlab, mamlakatning ravnaqiga katta ulushini qo'shadi.

Ajdodlarimizdan bizga boy va ulkan meros qolganki, uni targ'ib qilish,

musiqqa sanati an'analarini davom ettirish, jahon andozalariga javob bergan holda yosh avlodni tarbiyalash va yetuk mutaxassis kadrlar qilib yetishtirish bugungi kun davr talabidir.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bugunda O'zbekiston yoshlari kompozitor va ijodkorlari ijrochilari va sanat namayondalari uchun mahoratlarini ko'rsatish uchun keng yul ochib berilmoqda. Xalqaro maydonda o'tkazib kelinayotgan anjuman tanlovlar, festival va turli olimpiadalar, chet eldan dunyoning tanikli sanat arboblarning mamlakatimizga tashrifi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, respublika bo'ylab musiqa maskanlarida o'tkazilib kelinayotgan konsertlar, mahorat kechalari, milliy kompozitorlik maktabi nufuzini mustahkamlashda va yurtimizda professional ijrochilik sanati, ilmi rivojiga o'z ulushini qo'shmoqdalar [2].

Istedodli yoshlarimiz O'zbekiston mavqeini yuqoriga ko'tarib g'oliblik supasiga ko'tarilmoqda. Yuksak mukofotlarni qo'lga kiritib O'zbekiston va Qoraqalpokiston musiqasini jahon sahnalarida targ'ib qilgan ijodkorlarimiz borligi albatta quvonarli hol.

Darhaqiqat, milliy va zamonaviy musiqa san'atining turfa va rang-barang uslub va ko'rinishlariga ega bo'lgan andozalari asosida durdona namunalarini o'rganib targ'ib qilish, xar bir mamlakatning madaniy nufuzi va darajasini belgilashda bosh omil bo'lib qoladi.

Yosh avlodning musikiy iste'dodini va madaniyatini yuksaltirish maqsadida, mamlakatimizning xar bir shahar-tumanida musiqa va sanat maktablarining faoliyat ko'rsatishi nazarda tutilgan.

O'zbekistonda professional musiqa sanati rivoji jarayonida kompozitorlik ijodiyoti alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, kompozitorlik ijodiyoti ko'p ovozli musiqiy janrlarga murojaat etishi, jahon musiqa madaniyatini chuqur o'rganish asnosida o'z milliy taraqqiy yo'lini belgilashi taqozo etdi. Milliy kompozitorlik maktablarning shakllanishi va rivojlanishi shu tarixiy bosqichlar asosida amalga oshdi. Bevosita mazkur maktablarni o'ziga xosligi, milliy qiyofasini belgilashda shu maktablarni tarkibiga kirgan ijodkorlarning samarali ijodiy yutuqlari belgilab

berdi.

Har bir kompozitor iste'dodining yorqin qirralari u yaratgan musiqiy asarlarida gavdalanib, milliy va umuminsoniy g'oya va mavzularni, o'ziga xos ijodiy talqini va badiiy ko'rinishida tinglovchilarga namoyon qiladi. Bu borada har bir muallifni ma'lum janrga va ijodiy uslubiga ijodida bo'lgan yondashuvi va moyilligi bevosita ijodkorning ongi, milliy tafakkuri, madaniyati, olgan bilimi va badiiy didining shakllanishi kabi me'zonlarga borib taqaladi.

Qoraqalpoq musiqa madaniyatida, O'rta Osiyoning boshqa xalqlari singari, o'zining murakkab ichki tuzilishiga ega bo'lgan asosiy qatlamlari: an'anaviy musiqa va Yevropa kompozitorlik ijodiyoti asosida rivojlangan professional (yozma) turdagi zamonaviy musiqa san'ati misolida gavdalanadi.

Xususan, Qoraqalpog'iston musiqa hayotida folklor va an'anaviy musiqa san'ati janrlari (bahsi, jirau, qissaxonlik) va yangi ijro janrlari (simfonik musiqa, balet, opera) rivojlanib bormoqda. Zero, an'anaviy musiqa madaniyatining boshqa turlari va janrlari bilan birga, jirau va baksalar ijodi Qoraqalpoq xalqining asl milliy madaniy qadriyatlarining ifodasi sifatida o'zining madaniy ahamiyatiga ega.

Tarixga nazar tashlasak, eramizning birinchi asriga tegishli ajoyib madaniy meros sifatida «Ayirtam»dan topilgan «Ud» asbobi, 1946 yili arxeologik ekspeditsiya natijasida «Topiraq qaladan» toshga o'yib chizilgan rasmda «Arfa» chalib turgan musiqachini ham 1947 yili yana shu tuproqlardan ikki torli dutor turidagi cholg'u asbobini ushlab turgan inson fragmentini topilishi buning yaqqol dalilidir. Mana shu musiqa asboblarining rasmi chizilgan yodgorlikning, shuningdek og'zaki va yozma bitiklardan qoraqalpoq xalqining otabobolarimizning makonidan topilishi ham keng tarmoqli qoraqalpoq xalqining boshqa tug'ishgan millatlar xalqlardagi singari, musiqa madaniyatiga ega bo'lganligidan darakdir [3, B.218].

Qoraqalpoq musiqa madaniyati milliy og'zaki ijodida gavdalanadi. Milliy musiqiy madaniyat musiqani tashuvchi va saqlab qoluvchi ijodkorlar – qo'shiqchi, baxshi qo'shiqchi dutor cholg'usi jo'rligida qo'shiq va dostonlarni ijro etuvchi)lar, hikoyachi jirau, qahramonlik hikoyalarni bayon qiluvchi qissaxonlar tomonidan

namoyish qilinadi. Ular orasida G'aribniyaz, Yeshbay, Aqimbet, Musa, Sueu, Shernazar, Arzy, Juman, Yesjan, Japaq Orinbay.

1919 yili «Turtko'l»da ilk bora musiqiy dramatik jamoa bo'limi ochildi. Bu jamoa barcha to'garaklarga boshchilik etib, shaharlar bilan qishloqlarda konsertlar tashkil qilindi. Bu jamoa o'zining kasbiy faoliyatini kuchaytirish uchun markaziy shaharlardan tajribali kadrlarni jalb qildi.

Dastlabki davrda musiqali spektakllarga ijodkorlar xalq musiqasini qayta ishlagan bo'lsalar, so'ngra professional musiqa namunalarini yaratishga ham bel bog'ladilar. Qoraqalpog'istonning birinchi aktyori, dramaturgi, rejissyori, musiqachi va melodisti A.Utepov bilan atoqli baxshi-melodist J.Shamuratov va yana bir qator kompozitorlarning ijodiy natijasi sifatida «Tenin tapqan qiz», «Guman», «Bag'dagul», «Qorliqtan azat» va boshqa pyesalar sahna yuzini ko'rdi. [4.B.190]

1925 yili Turkulda «Tan nur» truppasi shakl topdi. 1925-yili yanvar oyidan boshlab «Qoraqalpoq truppasi» deb nomlanib, hozirgi Qoraqalpoq musiqali akademik teatrining negizini tashkil etdi. Bu jamoaning repertuari bir aktli spektakl, intermediya va yana boshqa janrlardan iborat edi. Ularda xalq va mumtoz kuy-qo'shiqlari – «Bozatau», «Shimbay», «Galgalay», «Nedag'» qo'shiqlari va «Nar iydiringen», «Nama basi», «Qara jorg'a», «Paxay», «Ariuxan» kuylari joy oldi. Bu spektakllarda xor, ansambl, deklamatsiya va hazil so'zli she'riy nomerlar aytiladigan bo'ldi. Teatr o'zining dastlabki o'n yilligi davomida Q.Avezovning «Tilek jolinda», A.Utepovning «Jездеjan», «Zindan», «Ashiq zari», «Shaleke bay», «Guman», «Tenin tapqan qiz», S.Majitovning «Yernazar ala ko'z» kabi musiqali pyesalar va intermediyalarni sahnalashtirdi.

1925-1926 yillari musiqachi tadqiqotchisi, folklorist V.Uspenskiy Turkmaniston territoriyasiga yo'l olgan ekspeditsiyasida bir qancha kuylarni yig'ib, to'plam qilib chiqaradi. Bu kitobda Porsi (Kalinin) Xojeli, Qung'irot tumanlaridan yozib olingan kuylari orasida Qoraqalpoq kuylari ham bor. Hozirda Qoraqalpoq xalqi orasida ushbu kuylar, jumladan: «Ayjamal», «Jig'ali yeki», «Auezim», «Durgalar», «Saltiq», «Xoja bag'man», «Muxalles», «Kor qiz»,

«Nariydirgen», «Yar anda qaldi» va boshqa kuylar ommalashib katta davralarda ijro etilib kelinadi.

1930-yili davlat siyosati ta'sirida o'quvchilar orasida «Komsomol», «Jana diyxan», «Pioner», «Jengejan», «Qazi iyshan» singari yangi mazmundagi kuy-qo'shiqlar paydo bo'ldi.

Shu yillarda Qoraqalpaq milliy teatrining dastlabki musiqali drama va komediyalari uchun musiqa to'plash va yaratish ishlarida birqator ijodkorlar mehnat qildilar: kompozitorlar – J.Shamuratov B.Tumanyan, G.Komponeyes, V.Shafrannikov, A.Xalimovlar hamda dramaturglar – A.Utegenov, S.Majitov, A.Begimov, N.Dauqarayev, A.Auezva, M.Daribayev, J.Aymurzayev, T.Seytjanovlar. Ular yangi ochilgan teatrning repertuarini xalq obrazlari, mavzulari, kuylari bilan boyitish ishlariga salmoqli hissa qo'shgan [5, B.52-54].

Yillar davomida samarali mehnat qilgan J.Shamuratov B.Tumanyan, G.Komponeyes, V.Shafrannikov va A.Xalimovlar natijada 20 dan ortiq musiqali drama va komediyalarga musiqa yaratdilar. Jumladan, «Bag'dagul», «Koklen bair», «Xorliqtan azat», «Aygul Abat», «Aral qizi», «Berdaq», «Leytinant Yelmuratov», «Amu boyinda», «So'ymegenge so'ykenbe» tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Shu bilan birga, kompozitor Japaq Shamuratov (1893-yili tavallud topgan) 200 dan ziyod musiqiy asarlar muallifidir. Uning ijodida alohida e'tibor qo'shiq va oyoq-o'yin raqslari, dutor cholg'usi uchun kuy-namalari egallaydi. J.Shamuratovni kompozitorlik uslubi qoraqalpoq xalq dostonlari, baxshi jirau va xalq urf-odat kuy-qo'shiqlari hamda hofiz baxshilarning ijro yo'liga hamohangligi bois, u yaratgan qo'shiq va raqslar – «G'arib ashik», «Sayatxan xamra», «Ashiq Najep Dauletyarbek» kabi lirik dostonlarida va to'y marosimlarida ijro etilib kelmoqda.

Xususan, to'plamning 18 ta kuyi musiqa asboblari – bayan va akkordion uchun qayta ishlanib, «Narodnaya muzika karakalpakii» nomi bilan Moskvada nashr yuzini ko'rdi. Aynan V.Shafrannikov Qoraqalpog'iston ijodkorlari tomonidan jahon musiqa janrlari va shakllarini o'zlashtirish uchun mutaxassislarni jalb qilgan va hozirgi zamon kompozitorlik maktabini poydevoriga asos solgan

shaxslardan biri hisoblanadi [6, B.171].

Kompozitor qoraqalpoq xalq kuylar asosida – fortepiano, skripka, damli cholg'ular, ansambl va orkestr jamoalari uchun pyesalar, marshlar, raqslar va kuylar yaratdi. Uning urush mavzusiga yozilgan «Fashizmga o'lim», «Budeniy jaug'a atlandi» va boshqa qo'shiqlarni va musiqali dramalari tarixiy va madaniy estaliklar sifatida saqlanib qoldi [1, B.31].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. “Madaniyat va sanat sohasida yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari xususida”gi 2017-yil 31- maydagi PQ-3022-son.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. – T.: «O'zbekiston», 2017. – B. 488.
3. T.Adambayeva “Revolyuusiyag'a shekemgi Qaraqalpaq muzikasi” - Nukus 1976, 12-bet
4. Ayimbetov K. Xaliq danalig'i. Nukus, 1968.
5. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T., 2004
- Intonatsiya i muzikalniy obraz. M., 1965
6. Maksetov K. Karakalpak jirau baksilari. – Nukus, 1983.
7. Maksetov K. Karakalpakskiy epos. – Tashkent, 1976